ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

JADIDLAR IJODIDA MA'RIFAT VA ERKKA UNDOVCHI G'OYALAR

Suhrob Ochilov Akram o'g'li
Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: **Fayzullayeva Ra'no Mahmudovna**
https://doi.org/10.5281/zenodo.21916921

Annotatsiya: Usbu maqolada jadid adabiyotining yetakchi vakillari bo'lgan Abdurauf Fitrat hamda Abdulhamid Cho'lpon ijodida erkka undovchi g'oyalar, xalqni ma'rifat sari yetaklovchi chaqiriqlar obrazli holda she'rlar misolida tahlil etiladi.
Kalit so'zlar: Mirrix yulduzi, chig'atoy gurungi, ramz, obraz,majoz, jadidlar, qizil sayyora, chor hukumati, Turkiston, gul, erk, jaholat, ma'rifat.

She'riyat — go'zallikning farzandi. Go'zallik esa doim ham odatiy jumlalar, jo'n misralar bilan yuzaga chiqavermaydi. Bunda ramziylik – fikrni ramziy obrazlar orqali ifodalash alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, o'zga tuzum tarkibida bo'lgan millat o'z dardini ochiq-oshkora bayon eta olmaydi. Shunday ekan, yozuvchi-shoirlar o'z dardlarini xalqiga yetkazishi uchun majoz yo'lini tutadilar.

Adabiyotshunos olim To'xta Boboyev "Obrazlilik — san'atning asosiy xususiyati, hayotni o'zlashtirishning o'ziga xos shakli va usuli, uning "tili" va shu til bilan birga hayot hodisalari ustodan chiqargan "hukmi"..."[1;41] — deya ta'kidlaydi.

Biz ulkan tarixga ega adabiyot maydoninmizga nazar solganda, bu maydonda o'zining yuksak o'rniga ega bo'lgan ajdodlarimiz — Jadidlarni alohida hurmat bilan tilga olmog'imiz lozim. Og'ir ijtimoiy-siyosiy tuzum davrida ijod qilgan, so'z erkinligi cheklangan, ijod erkinligiga to'siqlar qo'yilgan, borini boricha aytmoqlik jonga xatar bo'lgan bir davrda ijod qilgan Jadidlar ijodida ramziylik alohida o'rin tutadi. Jadidlar nafaqat asardagi mazmunni oshirish maqsadida, balki, mustabid tuzumning qoliplari talabi bilan ham asardagi o'z fikrini ochiq ayta olmagan. Bunday vaziyatda ijodkor o'z fikrini "qog'ozga o'rab" bayon qilgan. Ushbu fikrlarimizning tasdig'i sifatida bir nechta jadid adabiyoti vakillaridan bir nechta tahlillar ko'rib chiqamiz. Abdurauf Fitrat o'z jadid adabiyoti tilga olingan eng oldi qatorlarda ko'zga tashlanadigan ijodkordir. U jahonga mashhur Mir Arab madrasasida, Turkiyaning Istambul shararlarida tahsil olgan.

Biz Fitrat ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning asarlarida millat dardi, jamiyatning nuqsonlari, mustabid sovetlar siyosatidagi nohaqliklarni anglashimiz mumkin. Fitrat o'zining "Mirrix yulduziga" she'rida bu fikrlarni nechog'lik haqiqat ekanligini isbotlaydi. She'rning nomlanishining o'zi eng katta ramziylik yukini zimmasiga oladi. Mirrix yulduzi, ya'ni, Mars sayyorasi "qizil sayyora" nomi bilan ataladi. Shoir bu "qizillik" xususiyatini mustamlakachilarning zulmidan, nohaqliklaridan qonga bo'yalgan Turkistonga mengzagan.

"Go'zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuvg'oni" [2;42] — deya yulduzga boshqa ma'no ham yuklaydi. Ya'niki, mazlum, mustamlaka xalq uchun "eng qadrli" ne'mat, albatta, erkdir. "Nega bizdan qochib muncha uzoqlarg'a tushibsan?" [2;42] — deya keyingi misrada unga ta'rif berar ekan Mirrix yulduzining Yerdan uzoqda joylashganligiga urg'u beradi. Mazmunan qarasak, bu xalq uchun erk chindan ham "qochib", "uzoqlarg'a tushgan" edi.

"So'yla, yulduz, holing nadir, nechuk topding dunyoni?
Bizning yerda bo'lib turgan tubanliklar, xo'rliklar,
So'yla, yulduz, sening daxi quchog'ingda bo'lurmi?" [2;42] — deb Fitrat
xitob qilganda "Ey erk, sening quchog'ingda ham hozirgi bizni
qurbon qilayotgan tubanliklar, xo'rliklar bo'lishi mumkinmi?" — demoqda.

Ushbu she'r 1919-yilning 7-mayida bosilgan. Bu davrda Rossiya fuqarolar urushi iskanjasida qolgan va Abdurauf Fitrat boshchilik qilgan "Chig'atoy gurungi"[1] jamiyati nazarida yiqilish arafasida edi.

[1] https://oyina.uz/uz/teahause/2545?utm_source=perplexity

Bu og‘ir damda Chor hukumati o‘zining yiqilayotgan "o‘ligi"ni ham mustamlakasidagi xalqlar, jumladan, Turkistonning "yelkasi"ga ortayotgan, jabr-zulm bir necha hissa oshib ketgan davr edi. Fitratning bu misrasi aynan shu zulmni ifoda etmoqni o‘z zimmasiga olgan. Bunday og‘ir vaziyatda o‘zini hukumatga yaqin kishi, hukumat tarafdori qilib ko‘rsatishga uringuvchilar ortib ketgan edi.

Biz ayni Fitrat kabi ma’jozlar ustasi bo‘lgan Cho‘lpon she’riyatida ham tuzumdagi “zulmat”ni mohirina singdirgan qiyoslarni ko‘rishimiz mumkin. Cho‘lponning “Tong” [4;11] she’ri bunga yaqqol tasvir bo‘la oladi. Ushbu she’rning birinchi to‘rtligi quyidagicha:

“Sayra, - dedim, - qayg’u chekkan ey bulbul,
Ko’nglingdagi qayg’u-hasratlaringni”.
Bulbul dedi: “Tong otsin-da, yerni
Yasantirsin menim ma’shuqam – Gul!” [4;11]

Bir qarashda bu she’r bir bulbulga nisbatan oddiy xitob bo‘lib tuyulishi ham bor. Ammo she’rda bulbulning “qayg‘u chekkan”ligini alohida e’tiborga olishimiz kerak. Bulbulning qayg‘u chekishi ham gulning dardidan oddiy-odatiy hol deb qarash ehtimoldan xoli emas, albatta. Endi she’rning ramziy mazmunini ochiqlash uchun she’rning keying misralariga nazar tashlash joiz:

“Uyg’on, - dedim, - to’lg’on, - dedim, - ey Sharq”,
Zanjirlarni uzish vaqti keldi.
Erk olishga vaqtlagan bodi,
Shuning uchun to’lqinlandi ko‘p xalq. [4;11]

Yuqoridagi misralar “tong” shunchaki she’rda ko‘ringandagidek saboh emasligini, sayrashga chorlov ham “bulbul”ning sayrashiga qilingan xitob emasligini, bugungi og‘ir zamonning, ko‘z ochirmayotgan bu zulmga qarshi oyoqlanish, harakat qilish kerakligini ko‘rsatib beradi. “Gul” esa yerni yasantirish vazifasini olarkan, biz uning zimmasiga ERKning ramziy ma’nosini yuklay olamiz. Biz bu misradagi undov-xitoblardan butun she’rdagi ramzlarning tub ma’nosini tushunamiz. Endi bu tugunga yana bitta misol keltirsak:

“Ey cho‘zanak, - dedim, - jonsiz yotma,
Qanotchangni vizillatib uchgil –
Uchib gulzorlarga borib tushgil!”.
Dedi: “G’ofil, tong otguncha shoshma!” [4;11]

Ko‘rib turganingizdek, bu ikki baytda ham uyg‘onishga, oyoqqa turishga undov mavjud. Bu she’rda biroz notanish bo‘lgan jumla kelgan. Ya’ni “cho‘zanak” so‘zi. Aslida eski o‘zbek tilida ham “cho‘zanak”[2] so‘zi uchramaydi. Cho‘lpon esa so‘zanak — ninachiga cho‘zanak deb murojaat qilgan. Buning sababi esa ninachining harakatsiz yotishi — cho‘zilib yotganiga kesatiq holida ninachiga xitob qilgan.

“Oxiri zo’r kelib qashshoqlar, ochlar,
Qizil tong ustida erk tongi otdi.” — [4;12]

deya Cho‘lpon Turkistonning erk kunlari yaqin degan ma’noda qo‘llaydi bu jumlalarni. Sababki, bu she’r 1920-yilda, ya’ni Rus tizimida ulkan inqilob ro‘y berayotgan bir davrda yozilgan. Cho‘lpon shu inqilobga katta umidlar bog‘lagani va Ona Turkistonni ozod ko‘rish istagini shu she’rda ifodalaydi.

[2] https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10000014/F9OwZCpKgcyw6RJ.pdf?8-Av0S8VkF6AMZMqmFUKo

Ko’p taxtlar yiqilib, sindi ko‘p tojlar,
Toj-taxt egalari qonlarga botdi.
Oxiri zo’r kelib qashshoqlar, ochlar,
Qizil tong ustida erk tongi otdi.

Hali ham uxlasa Sharqdagi ellar,
Hali ham o‘zgaga qul bo‘lib tursa,
Nima der, “Xo‘p” dermi, aytingiz, erlar,
O’rog’in ko’tarib Azroil kelsa? [4;12]

She’rning oxirgi misralari mana shu tarzda yakunlanadi. Bu bilan Cho’lpon she’rning avvalidan beri yig’ib kelgan fikrni bayon qiladi. Xalqning ma’rifat nuridan bebahra qolib, jaholat qa’riga tobora botib borayotganini Cho’lpon tongi yo’q tunga qiyoslaydi. Agar xalq uyg’onmasa, tafakkur etmasa, bu tunning tongi otmasligini ushbu she’r orqali uqtiradi. Bulbul bo’lib gul ochilishini, so’zanak (ninachi) bo’lib tongning otishini kutsak, bu tong hech qachon otmaydi degan botiniy ma’noni badiiy mahorat bilan ifodalaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, adabiyotimiz maydonidagi eng shonli, eng zabardast, eng vatanparvar ijodkorlar bo‘lgan Jadidlar so‘z orqali ramziy ma’no ifodalashning mohirlari bo‘lgan deyishimiz mumkin. Jadidlarning, jumladan, Fitrat va Cho‘lpon ijodidagi deyarli har bir namuna o‘quvchining ko‘ziga ko‘ringan, bir qarashda tushuniladigan ma’nodan tashqari ramziy tub ma’nolarni ham o‘zida mujassamlashtirgan. Bu ramziylikning asosini tobora tubanlikka ko‘nikib, hatto o‘zi ham shu tubanlikning bir qismi bo‘lib borayotgan xalqini uyg‘onishga chorlovchi ma’rifat yolqini oziqlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. ТОШКЕНТ — ЎЗБЕКИСТОН — 2002.
2. Abdurauf Fitrat. ZABARJAD MEDIA – 2024
3. https://oyina.uz/uz/teahause/2545?utm_source=perplexity
4. CHO’LPON – SHE’RLAR. Toshkent “Akademnashr” – 2021
5. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10000014/F9OwZCpKgcyw6RJ.pdf?8-Av0S8VkF6AMZMqmFUKo